

## **KOLLABORATSIYA – BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM VOSITASI SIFATIDA**

*Raxmatov Otabek Urinbosarovich*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD). Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi. Navoiy davlat pedagogika instituti.  
<https://orsid.org/0000-0003-1288-3042>*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslari, mashg'ulotlari, sport maktablari va to'garaklari faoliyatini tubdan yangilash, o'quv jarayoniga samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagogik faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati mazmuni va diapozonini oshirishga xizmat qiluvchi masalalar muhokama etilgan.*

*Maqolada "Kollaboratsiya" termininig ta'riflanishi, maqsad va vazifalarini belgilab olish va qaysidir masala yechimini topish uchun dastlab vosita sifatida qaralishi tahlil etilgan.*

*Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining amaliy kompetentligini rivojlantirishda didaktikaning (o'quv) faoliyat vazifalari, psixologik tayyorgarlik umumiy sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarliklar, o'ziga xos vazifalar, amaliy kompetentlikni rivojlantirishga texnologik yondashuv, amaliy kompetentlikni rivojlantirishda texnologiyaning ustuvor yo'nalishlari, o'ziga xosliklari, aksiologik, shaxsga va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, pedagogik shart-sharoitlarga asoslangan xulosalar haqida so'z yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: kollaboratsiya, kompetentlik, aksiologik, psixologik, texnologiya, innovatsiya, kritika, kommunikatsiya, kreativlik, shakl, metod, komponent, vosita, vazifa, mashq, usul, me'zon, ta'lim, tarbiya, jarayon, tizim, axloqiy, irodaviy, estetik, faoliyat, musobaqa, tanlov, tadbir, trening, adaptatsiya, refleksiya.*

## **СОТРУДНИЧЕСТВО КАК ВАЖНОЕ СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ**

*Рахматов Отабек Уринбосарович*

*доктор философии по педагогическим наукам (PhD). Навоийский государственный педагогический институт*

*Аннотация. В данной статье реформы, направленные на коренное обновление деятельности обучения физической культуры, сборов, спортивных школ и клубов в нашей стране, внедрение в учебный процесс эффективных педагогических технологий, создание необходимых условий для педагогической деятельности, деятельности будущих учителей физического воспитания обсуждаются педагогические вопросы, служащие расширению содержания и спектра деятельности будущих учителей физической культуры.*

*В статье анализируется определение термина «Коллаборация», определяя его цели и задачи и изначально рассматривая его как инструмент поиска решения проблемы.*

*В статье рассмотрены задачи дидактической (воспитательной) деятельности по развитию практической компетентности будущих учителей физической культуры, психологической подготовки, физической, технической*

*и тактической подготовки в процессе общеспортивного совершенствования, конкретных задач, технологический подход к развитию практическая компетентность, в развитии практической компетентности обсуждаются приоритетные направления технологии, особенности, аксиологический, личностно - деятельностный подходы, выводы, основанные на педагогических условиях.*

*Ключевые слова: коллаборация, компетентность, аксиологическая, психологическая, технология, инновация, критика, общение, творчество, форма, метод, составляющая, средство, задача, упражнение, метод, критерий, воспитание, обучение, процесс, система, нравственный, волевой, эстетический, деятельность, соревнование, состязание, мероприятие, тренировка, адаптация, рефлексия.*

## **COLLABORATION AS AN IMPORTANT MEANS OF DEVELOPING PRACTICAL COMPETENCE IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS**

*Rakhmatov Otabek Urinbosarovich*

*Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD). Navoi State Pedagogical Institute*

---

*Abstract. In this article, reforms aimed at fundamentally updating the activities of physical education classes, trainings, sports schools and clubs in our country, introducing effective pedagogical technologies into the educational process, and creating the necessary conditions for pedagogical activities, the activities of future physical education teachers issues that serve to increase the content and range are discussed.*

The article analyzes the definition of the term “Collaboration”, defining its goals and tasks and initially considering it as a tool to find a solution to a problem.

In the article, the tasks of didactic (educational) activities in the development of practical competence of future physical education teachers, psychological preparation, physical, technical and tactical preparations during the process of general sports improvement, specific tasks, technological approach to the development of practical competence, in the development of practical competence the priority directions of technology, peculiarities, axiological, person- and activity-oriented approaches, conclusions based on pedagogical conditions are discussed.

Keywords: collaboration, competence, axiological, psychological, technology, innovation, criticism, communication, creativity, form, method, component, tool, task, exercise, method, criterion, education, upbringing, process, system, moral, volitional, aesthetic, activity, competition, competition, event, training, adaptation, reflection.

Bugun Yangi O‘zbekiston ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘pchiligimiz “kollaboratsiya”, “kritika”, “kommunikatsiya” yoki “kreativlik” kabi innovatsion so‘zlarni tez-tez eshitib turishimiz tabiiy holga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekiston jamiyati jahon hamjamiyatiga darvozalarini kattaroq ochdimi? Demak, jamiyat globallashib borgani sari ta’lim tizimimizga bu kabi internatsional so‘zlarning kirishi va sohada uni qo‘llashni taqazo etaveradi.

Tadqiqot ishlarimizni “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion

iqtisodiyotni rivojlantirish" ustivor yo'nalishi doirasida amalga oshirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, biz "kollaboratsiya" tushunchasini bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qarashlarimiz, ilmiy g'oyalimiz asosida ko'rib chiqishni lozim topdik.

Dastlab, qaysidir ilmiy termin, ibora, tushuncha, faoliyatimizda dunyoga keldimi? Keling! Uning mohiyatini anglab yetishga harakat qilaylik. Chunki, bu tushuncha qanday ma'no kasb etadi? Faoliyatimizda biz uni amalda qo'llasak biz va ta'lim oluvchilarda qanday naf kutiladi? Biz uchun ham, ta'lim oluvchilar uchun ham qiziq albatta.

Maqolani yozish jarayonida dastlab "kollaboratsiya" termininig lug'aviy ma'nosini axtarishga qiziqdim.

Axtargan ma'lumotlarim ichida men uchun va men tadqiq qilmoqchi bo'lgan tadqiqot ishim uchun "kollaboratsiya" termininig quyidagicha ta'riflanishi maqsad va vazifalarini belgilab olish va qaysidir masala yechimini topish uchun dastlab vosita sifatida qo'llashni taqazo etdi.

"Kollaboratsiya" (kollaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi – deb tushunilsa, ... .

Ba'zi manbalarda esa "Kollaboratsiya"- (hamkorlik) - ikki yoki undan ortiq shaxs yoki guruhning har qanday sohadagi umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyat jarayoni hisoblanib, unda bilim almashish, o'qitish va kelishuvga erishish (konsensus)[1] mavjudligi bilan ta'riflandi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslari, mashg'ulotlari, sport maktablari va to'garaklari faoliyatini tubdan yangilash, o'quv jarayoniga samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagogik faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati mazmuni va diapozonini oshirishga xizmat qilmoqda. [2]

Ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv masalasiga alohida e'tibor qaratilishi, texnologik yondashuvning eng asosiy afzalliklari kutiladigan natijalarning oldindan belgilanishi, ana shu natijalarga asoslangan holda, o'quv maqsadining belgilab olinishi, o'z navbatida ta'lim maqsadini o'quv vazifalarga aylantirilishi, ta'lim shakl, metod va vositalarini to'g'ri tanlab olinishi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyati bosqichlarining alohida-alohida loyihalab olinishini tashkil etadi.[2]

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishda texnologiyaning ustivor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- qat'iy tartibga solinadigan mashq usullaridan foydalanish (qismlarga bo'lib o'rganish, umuman va majburiy ravishda osonlashtirish);

- o'qituvchi (kouch-trener)lar va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati;

- o'z-o'zini boshqarish;

- faoliyatning tashkil etilishi va natijalari;

- qisman tartibga solinadigan usullar (o'yin va raqobatbardosh texnologiyalar)

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishda texnologik yondashuvdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Amaliy kompetentlikni rivojlantirishga texnologik yondashuvni tatbiq etish quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishni talab qiladi:

- o'quv mashg'ulotlari ta'lim oluvchilarning o'quv maqsadlariga aniqlik kiritishdan boshlanadi;

- ta'lim-tarbiyaviy jarayon oldindan qayd etilgan natijani ko'zlab tashkil qilinadi;

- har bir ta'lim oluvchi o'z mashg'ulot faoliyati xususiyatlariga muvofiq keladigan jarayonda ishlaydi;

- guruh a'zolarining har biri o'zlari muvaffaq bo'lgan natijadan jadal ogohlantirib boriladi;

- qo'lga kiritilgan natija ta'limning har bir pog'onasida etalonga biriktirib boriladi;

- ko'rsatkich ta'lim oluvchilarning muhim o'quv maqsadlari asosida belgilab olinadi;

- o'quv vazifalarini to'la o'zlashtirib olganlar keyingi mavzuni o'rganishga o'tadi;

- etalondan past o'zlashtirganlar uchun ta'lim o'xshash sharoitlarda takrorlanadi;

- ta'lim oluvchilar uchun o'qish va o'rganish faoliyati maqsadga muvofiq topshiriqlarni amalga oshirishni yo'lga qo'yishdan boshlanadi;

- ta'lim oluvchilar faoliyatiga muvofiq joriy maqsadlardan muayyan maqsadga – tushunchalar majmuiga, undan universal o'quv maqsadiga qarab boradi;

- harakat faoliyatiga muvofiq maqsaddan universal o'quv maqsadiga qarab borish, o'qish, o'rganish va o'zlashtirishning siklligini ta'min etadi;

- yakuniy baho, natija (nazorat) ta'lim dasturiga muvofiq belgilangan shakl va me'zonlarga asosan amalga oshiriladi.

Shu o'rinda jismoniy tarbiya va sportning didaktik faoliyatiga to'xtalib o'tsak.

Jismoniy tarbiya va sport didaktik (o'quv) faoliyati uchta funktsiyani bajaradi:

Ta'limiy vazifa: - fanlarning asoslarini bilish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish usullarini bilish va undan amalda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tarbiyaviy vazifa: - ta'lim oluvchilarning axloqiy, irodaviy fazilatlarini, estetik didni shakllantirishga hissa qo'shadi.

Rivojlantiruvchi vazifa: - tanadagi barcha tizimlarning rivojlanishiga va umuman shaxsiyatiga yordam beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishda psixologik tayyorgarlik umumiy sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan olib boriladi. Uning yordamida quyidagi o'ziga xos vazifalar hal etiladi:

- ta'lim jarayoni ishtirokchilarida axloqiy sifatlarni tarbiyalash;

- talabalar jamoasida psixologik sog'lom muhitni shakllantirish;

- har bir ta'lim jarayoni ishtirokchisida iroda sifatlarini tarbiyalash;

- sport amaliyoti mashg'ulotlarida ilg'ab olish jarayonlarini rivojlantirish, xususan "raqibni his qilish", "vaqt va makonni his qilish" kabi ilg'ashning maxsus turlarini takomillashtirish;

- sport turlari mashg'ulotlari jarayonida diqqatni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o'tishni rivojlantirish;

- o'qitish va o'rgatish bosqichlarida taktik fikrlashni rivojlantirish;

- o'z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish asosida talabalarning alohida xususiyatlari va ularning emotsional holatiga qarab, badan qizdirish mashqlari vositalari hamda uslublaridan maqsadli foydalanish imkonini beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining amaliy kompetentligini rivojlantirishda didaktikaning (o'quv) faoliyat vazifasiga ko'ra quyidagi ko'rinishda amalga oshirilishini nazarda tutdik:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining amaliy kompetentligini rivojlantirishda nazariy bilimlarga ega qilish, o'zlashtirish usullarini bilish, ham undan amalda foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida axloqiy, irodaviy jismoniy fazilatlarini,

estetik didni rivojlantirish;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarziga erishish va shaxsiy gigiyenani ta'minlash, o'rganilayotgan harakatlarning istiqbolli qiymatini va ularni amalga oshirishning texnik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni bilishni o'rgatish.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning mazkur o'ziga xosliklari aksiologik, shaxsga va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarda o'z aksini topadi. Aksiologik yondashuv adolat, ezgulik, go'zallik, hayot, erkinlik, baxt kabi qator umuminsoniy qadriyatlarni o'zida birlashtiradi hamda ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni avlodidan-avlodga uzatib borilishida namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuv shaxsning o'z-o'zini qadriyat sifatida anglashi hamda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'quv-bilish faoliyatini ma'naviy mazmun bilan boyitish tamoyillari orqali amalga oshadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv individual o'ziga xosliklarni hisobga olgan shaxsni rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish, o'z faoliyati maqsadlarini mustaqil belgilash hamda amalga oshirishga yordam beradi. Aynan mazkur yondashuv shaxsga tanlov erkinligi hamda mas'uliyat va o'zaro faol muloqotga kirishish imkonini beradi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim – tarbiya jarayoni ishtirokchisining shaxsiy faollik ko'rsatish jarayoni va natijasida qo'lga kiritilgan ijtimoiy tajribaning egallanganligini ko'zda tutadi. Chunki o'quvchida barcha jismoniy, irodaviy shaxsiy sifatlar nafaqat uning faoliyatida namoyon bo'ladi, balki mazkur jarayonda rivojlanib ham boradi.

Mazkur texnologiya asosida kutiladigan natijalarga erishish uchun bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishda reflektiv yondashuvni qo'llash, OTM o'qituvchisi va trenerlarning faol hamkorligini yo'lga qo'yish, jismoniy rivojlanish jarayonida ta'lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Faoliyatga doir komponent bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi – qaysidir sport turidan talabalarga murabbiylik qiluvchi kouch-trenerning o'zaro birgalikdagi harakati mexanizmlari yig'indisi (hamkorlik, qo'llab-quvvatlash, maslahatchilik), pedagog funktsiyalari (informatsion, motivatsion-fasilitativ, kouch-trener, kooperativ va kollaborativ) bilan chambarchas bog'liq ravishda metodik ta'minotni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hamda amaliy kompetentlikni rivojlantirishga doir vazifalar (adaptatsiya, refleksiya, o'z-o'zini namoyon etish)ni ochib beradi.

Metodik komponent amaliy kompetentlikni rivojlantirishning shakl, metod va vositalarini o'z ichiga qamrab oladi. U bevosita kognitiv va faoliyatga doir komponentlar bilan bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirishning metodik asosini o'zida ifoda etadi. Ana shu jihat bilan bog'liqlikda shunday xulosaga kelish mumkin: metodik komponent qo'yilgan maqsadga erishish imkonini beruvchi shakl, metod va vositalar yig'indisini o'zida aks ettiradi.

Masalaning navbatdagi yechimi natijaviylikni o'zida aks ettiradi. Mazkur blok baholovchi funktsiyasini bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun u o'zida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish darajalari ta'lim jarayoni ishtirokchisining jismoniy tayyorgarligi, motivlari va ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish

texnologiyasining amaliy bosqichi ommaviy (musobaqa, tanlov, tadbirlar), jamoaviy (nafas olishni sog'lomlashtirish, kollaboratsiya, kooperatsiya), individual (mustaqil tayyorgarlik, maslahat, yakka tartibdagi trening) ish shakllarini qat'iy tartibga solingan jismoniy mashq, o'yin, raqobat usullari bilan qayta aloqasi intensivligini ta'minlash orqali takomillashtiriladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga asoslanish lozim, degan xulosalarga kelindi:

- faoliyat maqsadini aniqlashtirish;
- faoliyat mazmunini loyihalashtirish;
- pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalarini aniqlashtirish;
- ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish metod va usullarini ishlab chiqish;
- faoliyat natijalari monitoringini yuritish.

Yakuniy xulosa sifatida biz shuni alohida ta'kidlab o'tishni lozim toptik. Maqolada "kollaboratsiya" tushunchasiga bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaradik va ushbu internatsional termin atrofida ilmiy g'oya va fikr-mulohazalarimizni rivojlantirishga erishdik. O'ylaymanki, maqolada bildirilgan shaxsiy fikr-mulohazalar yana qaysidir ilmiy muhokamaga sabab bo'lib, mamlakatimiz ilm-fan, ta'lim-tarbiya tizimiga xizmat qiluvchi g'oyalarning dunyoga kelishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati/Список литература/References:

1. Ol'shanskogo D.V. Sotrudnichestvo Glossariy po politicheskoy psixologii. –M.: RUDN. 2003. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Raxmatov O.U. O'quvchilarning milliy sport turlariga qiziqishini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2022 y.
3. Frolov S.F. Sotsiologiya. Sotrudnichestvo i konflikti. – M.: 1997. Yurist, - 240 s. ISBN 5 -7357-0198-3. <https://ru.wikipedia.org/wiki>